

PAPER

EKOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK VA TARJIMASHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANILISHI

Shodmonova Xadicha Alisher qizi^{1,*}

¹ToshDO'TAU Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik 1-kurs magistranti

* shodmonova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada ekologik terminlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Terminlarning tarjimashunoslikda qanday usullarda talqin etilishi va muqobil variantlari berilishi ham muhokama qilinadi. Ekologik terminlarni lingvistik va kontekstuallik nuqtayi nazaridan tarjima qilish yo'llari va ularning tarjimashunoslikdagi o'rni muhimligi aytib o'tiladi.

Key words: ekologiya, ekologik atamalar, bioxilma-xillik, ekologik iz, yashil energiya, issiqxona gazi, uglerod yutilishi, chiqindisiz hayot tarzi, iqlim o'zgarishi, organik dehqonchilik.

KIRISH

Bugungi kunda ekologiya dolzarb masalalardan biri bo'lib, u turli fanlar kesishgan nuqtalarda o'rganilmoqda. Ekologik terminlarning ilmiy va amaliy yechimi asosan ushbu sohaga oid terminlarning aniq va tushunarli bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ushbu terminlarning lingvistik va tarjimashunoslik sohalarida tadqiq qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ekologiya organizmlar va ular bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi” va lingvistika bilan birga tilga bo'lgan munosabatlarni atroflicha o'rganadi. Ekologik terminologiya atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanish tizimi bilan bog'liq atamalar tizimini o'z ichiga oladi. Unday terminlar tabiiy fanlar, huquq, siyosat va boshqa ko'plab sohalarida keng qamrovdan foydalaniladi. Masalan, hozirgi kunda ommaviy hisoblangan “barqaror rivojlanish” (*sustainable development*), “bioxilma-xillik” (*biodiversity*) va “global isish” (*global warming*) kabi tushunchalar ekologik muammolarni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

METODOLOGIYA

Ekologik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda turli tarjima usullaridan foydalaniladi. Ularni ekvivalentlik nuqtayi nazaridan tarjima qilish hozirgi davrda adekvat variant hisoblansa-da, boshqa taraflama, masalan lingvistik, so'zma-so'z yoki erkin tarjima usullaridan ham foydalanish mumkin. Faqat eng e'tiborli jihati shundaki, ularni tarjima qilishda kontekst bilan ehtiyotkorona ishlash talab qilinadi. Negaki terminlar tarjimasi nozik masala va ularda xato qilish tarjimon uchun qiyinchilik olib kelishi mumkin. Ushbu maqola metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Ekologik terminlarni lingvistik taraflama o'rganish va tarjima qilish: bunda tilshunoslikka oid masalalarga murojaat qilinadi va har bir so'z alohida tahlil qilinadi.
2. Ekologik terminlarni tarjimashunoslik tarafmala o'rganish va tahlil qilish: bunda tarjimashunoslikdagi nqator usullardan foydalangan holda terminlar tahlil qilinadi va eng munosib tarjima variant beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ekologik terminlarni turli nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Quyida ularni 2 taraflama – lingvistik va tarjimashunoslik nuqtai nazarlaridan o'rganilishini tahlil qilamiz:

Ekologik terminlarning lingvistik nuqtai nazardan o'rganilishi:

Ekologik terminlar turli tillarda har xil morfologik va semantik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi terminlar xalqaro miqyosda qo'llanilsa (masalan, “climate change”), ba'zilari esa faqat milliy kontekstda o'ziga xos ma'noga ega bo'ladi.

Terminlar odatda *polisemiya* (ko'p ma'nolilik) va *sinonimiya* muammolariga sababchi bo'ladi. Bu masalalar terminlarning semantic jihatdan o'rganilishiga olib keladi. Masalan, “carbon footprint” atamasini ingliz tilidan o'zbek tiliga bevosita tarjima qilish tushunarsiz holatni yuzaga keltiradi. Negaki, ushbu qo'shma so'zning “footprint” birligi o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganida “oyoq izi” degan ma'noni bildiradi. Biroq “carbon footprint” atamasining to'g'ri tarjimasini ekologiya sohasidagi “atmosfera chiqariladigan uglerod miqdori” atamasini bildiradi. Shuningdek, bir atamaning turli tillarda turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa noto'g'ri tushunishga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Ba'zi tillarda ekologik terminlar *birikmalar* (qo'shma so'zlar) shaklida qo'llaniladi, boshqalarida esa sintaktik jihatdan ajratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “greenhouse gas” iborasi o'zbek tilida “issiqxona gazlari” deb tarjima qilinadi, bu yerda morfologik o'zgarishlar kuzatiladi. Batafsil qilib aytganda, ingliz tilida ot birikmasi sifatida ishlatilgan bu ibora o'zbek tilida murakkab otga aylanib, unga egalik va ko'plik qo'shimchalari qo'shiladi. Shu bois bu tarjima nafaqat so'zma-so'z, balki tilning grammatik va semantik qoidalariga mos holda o'zgaradi.

Ekologik terminlarning tarjimashunoslik nuqtai nazardan o'rganilishi:

Ekoterminalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Misol uchun:

1. **Ekvivalentlik muammosi.** Ba'zi ekologiyaga oid terminlar boshqa tillarda aniq ekvivalentga ega emas. Masalan, “carbon sequestration” atamasi o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emas, shuning uchun uni ma'noviy jihatdan moslagan holda “uglerod yutilishi” yoki “uglerod bog'lanishi” deb tarjima qilish mumkin. Ammo ba'zi manbalarda ushbu atamani “uglerod sekvestratsiyasi” deb berilgan holatini ham uchratish mumkin. Ushbu holatdan ko'rinib turibdiki, so'zning tarjimadagi ekvivalentini qo'yishga oid muammo sababli, so'zning o'zi o'zbekchalashtirilishi yuzaga kelmoqda.

2. **Kontekstga bog'liqlik.** Terminlar ma'lum bir ilmiy yoki ijtimoiy kontekstga qarab turlicha tarjima qilinishi mumkin. Bunday vaziyatda terminning qo'llanilgan kontekstiga ko'proq e'tibor qaratib, chuqur o'rganish kerak bo'ladi. Ekologik terminlarni tarjima qilish jarayonida kontekstga bog'liqlik juda muhim omillardan biridir. Chunki bir atama turli sohalarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin va bu tarjimada mos ekvivalentni tanlashda qiyinchilik tug'diradi. Quyida kontekstga bog'liq holda turlicha tarjima qilinadigan ekologik terminlar misol tariqasida keltirilgan:

2.1. **Atamalarining ko'p ma'noliligi (polisema) sababli kontekstga bog'liqlik**

Ba'zi ekologik terminlar bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Tarjimon ularning aniq ma'nosini kontekst asosida tanlashi kerak.

Green energy to'g'ridan-to'g'ri “yashil energiya” deb tarjima qilinsa, u tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shu sababli “muqobil energiya” yoki “ekologik toza energiya” deb tarjima qilish to'g'riroq bo'ladi.

Carbon footprint ilmiy matnda “uglerod chiqindilari miqdori”, ekologik siyosat kontekstida esa “ekologik ta'sir” deb tarjima

Inglizcha termin	To'g'ridan-to'g'ri tarjima	Kontekstga qarab aniq tarjima
<i>Green energy</i>	Yashil energiya	Muqobil energiya / Ekologik toza energiya
<i>Carbon</i>	Uglerod izlari	Atmosfera chiqariladigan uglerod miqdori / Ekologik ta'sir
<i>Climate change</i>	Iqlim o'zgarishi	Global isish yoki ob-havo sharoitining o'zgarishi
<i>Organic farming</i>	Organik dehqonchilik	Kimyoviy vositalarsiz qishloq xo'jaligi

qilinishi mumkin.

2.2. Terminlarning madaniy kontekstga bog'liqligi

Ekologik terminlar turli mamlakatlar madaniyati va ekologik siyosatiga qarab turlicha tushunilishi va tarjima qilinishi mumkin.

Misol: “Zero waste” iborasi

• AQSh va Yevropa mamlakatlarida bu ibora “maishiy chiqindilarni butunlay yo'q qilish” degan ma'noni anglatadi.

• O'zbekistonda esa chiqindilarni saralash va qayta ishlash nisbatan yangi tushuncha bo'lgani uchun, “chiqindisiz hayot tarzi” yoki “qayta ishlashga asoslangan hayot tarzi” deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq.

Misol: “Green building” (yashil bino) iborasi

• Yevropa va AQShda “ekologik toza materiallardan qurilgan bino” degan ma'noni anglatadi.

• O'zbekistonda esa ushbu tushuncha ham endigina rivojlanayotganligi tufayli “energiya tejovchi bino” yoki “ekologik uy” deb tarjima qilish mos keladi.

3. Kontekst asosida to'g'ri tarjima qilish strategiyalari

Ekologik terminlarni to'g'ri tarjima qilish uchun quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. **Ta'rif orqali tarjima** – Atamaning kontekstga mos aniq ta'rifini berish.

“Carbon sequestration” → “Atmosferaadagi karbonat angidridni ushlab qolish jarayoni”

2. **Funktsional ekvivalent topish** – Terminning boshqa tilda ishlatiladigan sinonimini tanlash.

“Eco-friendly products” → “Ekologik toza mahsulotlar”

3. **Transliteratsiya yoki adaptatsiya qilish** – Terminni bevosita tarjima qilmasdan moslashtirish.

“Biodiversity” → “Biodiversitet” yoki “biologik xilma-xillik”

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ekologik terminlarni tarjima qilishda turli strategiyalar mavjud va ularning tarjimashunoslikda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimon terminlar bilan ishlashda ehtiyot bo'lib tarjima qilishi va ularni kontekstlarda qo'llashi zarur. Ko'p ekologik terminlarning o'zbek tilidagi muqobil varianti bo'lmagani sababli ularning ekvivalentini yoki mos tarjimasini topish qiyinroq. Aynan shunday vaziyatda terminlarning turli uslub bo'yicha tarjima qilinishi tarjimonga yengillik beradi va tarjima matnining so'z boyligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Paluanova X.D. Ekologik terminlarning derivatsion-semantik xususiyatlari (o'zbek, qoraqalpog, ingliz va rus tillari misolida) – Toshkent, 2016.

2. <https://www.britannica.com>
3. <https://uz.wikial.top>
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. Ergashev A., Umumiy ekologiya, Toshkent, 2003
6. <https://www.studysmarter.co.uk/explanations/environmental-science/living-environment/ecological-terms/>